



Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

INGLIZ TILI DARSLARIDA TA'LIM MAQSADLARINI LOYIHALASHDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

FAYZIYEVA MAFTUNA KAMOLOVNA

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi
+998900544200
mfayziyeva33@gmail.com

Abstract:

Ma'lumki har qanday bilim-ko'nikma egallashda xoh verbal bo'lsin, xoh noverbal, nutq asosiy rol o'ynaydi. Xuddi shuningdek, bilim berishda ham nutq shaklisiz buning iloji yo'q. Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishda ta'lim maqsadlarini loyihalash jarayonida nutqiy ko'nikmaning roli va ahamiyati haqida bayon qiladi, shuningdek, maqolada maqsadli ta'lim, ta'limda maqsad qo'yish, uning ahamiyati, tamoyillari, vaifalari va eng asosiysi, natijadorligi haqida ham nutqiy kompetensiyasi muhim omil ekanligi haqida qisqacha yoritilgan.

Keywords: loyiha, loyihalash, ijodkorlik, ta'lim sifati, tamoyil, prinsip, samaradorlik, muloqot, nutqiy, ingliz tili, o'qituvchi, natijadorlik, zamonaviy ta'lim texnologiyalar, ko'nikma, muammo, yechim.

Loyiha - (lotin tilida: "proekt"- "oldinga tashlangan") insonlarning jamoaviy, tashkiliy, mustaqil izlanishga undovchi, muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat shaklidir. Loyiha: inshoot, jarayon, tadbir, ssenariy rejasidir, ya'ni, muayyan hujjatning taxminiy matnini tashkil qiladi.

"Loyihalash" atamasi ilk bor XX asrning birinchi yarmida istemolga kirgan bo'lib, u asosan natijani qo'lga kiritishga qaratilgan bo'ladi, Loyihalash o'quvchilar tomonidan mustaqil bajariladigan faoliyat yo'lidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida har qanday loyiha yokida loyihalash ishi bo'lmasin, o'quvchilar qiziqishi, ijodkorligiga yo'naltiriladi va u o'qituvchi rahbarligida ostida maxsus pedagogik sharoitda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, umumiy o'rta ta'lim maktablari doirasida amalga oshirilgan loyihalar ta'lim sifatini kafolatlashga yo'l ochadigan muayyan faoliyatni belgilaydi.

Ingliz tilini o'qitishda ta'lim maqsadlarini loyihalashning quyidagi asosiy tamoyillari mavjud:

-madaniy muvofiqlik prinsipi;

-ijodkorlik prinsipi;

-o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirish prinsipi;

-o'zgaruvchanlik prinsipi;

-shaxsning ko'p madaniyatlilik (shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy, oilaviy,..) va o'zini namoyon qilish prinsipi;

-tolerantlik prinsipi;

-madaniy muloqot prinsipi.

Ingliz tili darslarida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish, uni qamrovli tarzda yetkazib berish va namoyish qilish jarayonlari nutq faoliyatining barcha turlarini qamrab oladi. Shuningdek, o'qitishning o'zaro bog'liqligi, o'quvchilarni o'qitish mazmuniga ijtimoiy, mintaqaviy va madaniy jihatlarni faol kiritish sharoitida tashkil qilinadi.

Ingliz tili darslarida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish maqsadi:

- o'quvchilarda o'quv-biluv motivatsiyasini oshirish;

- o'quvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirish;

- tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligiga bo'lgan mas'uliyatni oshiradi va keyingi o'quv faoliyatiga rag'bat sifatida namoyon bo'ladi

Ingliz tili darslarida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishning bir qator ahamiyat kasb etuvchi vazifalari mavjud bo'lib, ular o'quvchi va o'qituvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirish, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalar, kompyuter, Internet, HR(Human Resources – Inson Resurslari) AI (Artificial Intelligence – sun'iy intellekt) imkoniyatlaridan foydalanish mahoratlarini rivojlantirish kabilarni tashkil qiladi. Bundan tashqari, taqdim qilingan o'quv materialidagi eng muhim g'oyalarni saralash, tahlil qilish, qiyoslash ko'nikmalarini rivojlantirish, dars samaradorligini oshirish, o'rganilayotgan o'quv predmetiga zamonaviy ta'lim texnologiyalar orqali motivatsiya hosil qilish o'quvchilarning psixofiziologik va shaxsiy-individual qobiliyatlarini rivojlanishiga ham turtki bola oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda ta'lim maqsadlarini loyihalash o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida keng imkoniyat yaratadi, "subyekt-subyekt" munosabatlari qaror topadi va ta'limning kafolatlangan natijalariga erishiladi.

Loyihalash - maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, quyilgan muammoning yechimini topishga qaratiladi va uni o'zgartirish yo'llari va yechimlarini topishga zamin yaratadi.

Ingliz tilini o'qitishda ta'lim maqsadlarini loyihalash o'quvchi shaxsining intellektual, estetik, jismoniy qobiliyatlari va irodaviy, ijodiy sifatlarini rivojlantirishga qaratiladi.

Loyihalash texnologiyasi esa muammoning yechimini ketma-ketlikda izlashni talab qiluvchi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- muammo (vazifalar)ni aniqlash;
- maqsad (muammo bilan bog'liq bo'lgan aniq vazifa)larni shakllantirish;
- Muammo yechimini topishga qaratilgan metod va vositalarni tanlash;
- Muammo yechimini topishda tadqiqotchilik faoliyati tashkil qilish;
- Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;
- Ma'lumotlar matn (rasm, chizma) shaklida shakllantirish;

- Ma'lumotlarni muhokama qilish va tuzatish;
- Kutilgan natijaning ifodasi.

Loyihalash texnologiyasi muammoli o'qitish g'oyalarini rivojlantirish asosida o'qituvchi rahbarligida yangi g'oyani kashf etish va yangi fikriy hosildorlikni yaratishga qaratilgan, yangi mohiyat va mazmundagi ahamiyatga ega bo'lgan jarayon.

Ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish loyiha metodlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Loyiha metodlari o'z navbatida o'quvchi soni, salohiyati, sinfi, bilim darajasi, qolaversa, o'quv predmetlari va mazmuniga ko'ra turlicha turlanadi. Bunda asosan qisqa muddatli (mini loyihalar – haftasiga bir marotaba qo'llaniladigan metodlar), uzoq muddatli (o'quv choragi yillik o'quv muddati mobaynida qo'llaniladigan metodlar), guruh, ijodiy, tadqiqotchilik, kabi faoliyat turi va tashkiliy qismlar inobatga olinadi.

Loyiha metodlari o'quvchilarda aqliy qobiliyatlarni shakllantirish, mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu xususda fikr yuritishdan oldin, ayrim aqliy faoliyat ko'nikmalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq deya hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarining ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishga o'rgatishning umumiy maqsadi amaliy (kommunikativ), ta'limiy va o'quv maqsadlarini o'z ichiga olgan keng qamrovli maqsaddir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu maqsadga o'qituvchi va o'quvchilarning o'qish, tinglash, gapirish va yozishda zarur til va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bekmurotova, S. A. (2019). GRAMMATIC FEATURES OF DOUBLE WORDS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(5), 248-252.
2. Azamatovna B. S., Salijanovna I. S. Classification of could words in german and Uzbek //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – T. 17. – №. 6. – C. 7333-7339.
3. Bekmurotova S. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA JUFT SO'ZLARNING SEMANTIK ASPEKTIDA LINGVOKUTUROLOGIK XUSUSIYATLAR //Science and innovation in the education system. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 222-227.
4. Imyaminova S. НЕМИС ТИЛИ ФРАЗЕОЛОГИЯСИДА ТЕРМИНОЛОГИК БЕТАРТИБЛИК МАКАЛАСИ //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B5. – C. 193-198.
5. Shukhratkxon I., Bekmurotova S. Grammar and stylistic characteristics of pair words in modern german and Uzbek languages //ACADEMICA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 1953-1956.
6. Shukhratkxon I., Bekmurotova S. Structural-Semantical Features of Pair Words in Modern German and Uzbek Languages //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry. – 2021. – T. 12. – №. 9.
7. Azamatovna B. S. PAIRS OF WORDS AND THEIR SEMANTIC ANALYSIS IN ARTISTIC TEXTS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES //International Global Conference. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 169-173.
8. Bekmurotova S. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA JUFT SO'ZLARNING SEMANTIK ASPEKTIDA LINGVOKUTUROLOGIK XUSUSIYATLAR //Science and innovation in the education system. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 222-227.
9. Nigmatovna, Y. N. (2021). WIDE USE OF ROLE GAMES IN MODERN TEACHING METHODS. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 2, 115-122.
10. Nargiza, Y. (2024). INCREASING STUDENT'S INTEREST IN ENGLISH LANGUAGE IN MIXED EDUCATION TECHNOLOGY.

11. Yusupova, N. N. (2023). PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI MUHITIDA ARALASH TA'LIMNI QO'LLASH TEXNOLOGIYASI. Innovative Development in Educational Activities, 2(19), 224-230. 5. Yusupova, N., [Nigmatovna]. (2023). Zamonaviy ta'limning samarali usullari va komponentlari. O'zbekiston Til Va Madaniyat, 2023/3(2181–922x), 21.
12. Nigmatovna, Y. N. (2024). BILIMLARNI INDIVIDUALLASHTIRISH ORQALI O 'QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNI TASHKILASHTIRISH. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 2(5), 976-982.
13. О.П.Жиянов “Педагогик таълим мақсади, мазмуни ва тамойиллари“ (2002)
14. Веревкина-Рахальская Ю.Н. Роль и место Интернет-ресурсов в формировании коммуникативной компетенции у студентов специализированных вузов (на материале общественнополитической тематики Вестник МГОУ. Серия “Открытое образование”. - №2 (33). Том 1. - 2006. - М.: Изд-во МГОУ
15. Нестерова Виктория Валеревнанинг «Педагогические условия организации сотрудничества детей и взрослых в муниципальном пространстве дополнительного образования» (Москва, 2015)
16. Серова Т.С. Об экспериментальном исследовании взаимосвязи развития навыков чтения и устной речи на первом этапе в техническом вузе// Вопросы филологии и методику преподавания иностранного языка: Сб. науч. трудов. Пермь, 1969. - № 61..